



Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining o'zgarishi

Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti 4-bosqich talabasi

Gmail: makhmudovazokhida@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining o'zgarishi ko'rib chiqilgan. Raqamli texnologiyalarning mehnat bozoriga ta'siri, yangi kasb va mutaxassisliklarning paydo bo'lishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi, xalqaro raqobat va ijtimoiy ta'sirlar tahlil qilingan. Shuningdek, hozirgi kundagi asosiy tendensiyalar, jumladan masofaviy ish imkoniyatlarining kengayishi, moslashuvchan ish grafigi va frilanserlik, hamda avtomatlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'siri o'rganilgan. Maqolada O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, mehnat bozori, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, masofaviy ish, frilanserlik, raqamli savodxonlik.*

Изменения на рынке труда в условиях цифровой экономики

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются изменения на рынке труда в условиях цифровой экономики. Анализируется влияние цифровых технологий на рынок труда, появление новых профессий и специальностей, повышение эффективности производства, международная конкуренция и социальные эффекты. В нем также исследуются ключевые тенденции сегодняшнего дня, в том числе рост возможностей удаленной работы, гибких графиков работы и фриланса, а также влияние технологий автоматизации и искусственного интеллекта. В статье представлена информация о реформах, реализуемых в Узбекистане в этом направлении.*



Ключевые слова: цифровая экономика, рынок труда, автоматизация, искусственный интеллект, дистанционная работа, фриланс, цифровая грамотность.

Changes in the labor market in the digital economy

Annotation. *This article examines the changes in the labor market in the context of the digital economy. The impact of digital technologies on the labor market, the emergence of new professions and specialties, the increase in production efficiency, international competition and social effects are analyzed. It also explores key trends today, including the rise of remote work opportunities, flexible work schedules, and freelancing, and the impact of automation and artificial intelligence technologies. The article provides information about the reforms implemented in Uzbekistan in this regard.*

Keywords: *digital economy, labor market, automation, artificial intelligence, remote work, freelancing, digital literacy.*

Raqamli iqtisodiyot hozirgi kunga kelib, zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylandi. Raqamli iqtisodiyot – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida qurilgan va raqamli ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan iqtisodiy faoliyatni anglatadi. Raqamli texnologiyalar va internet tezligining oshishi tufayli iqtisodiyotning barcha sohalari o'zgarimoqda, shuningdek mehnat bozoriga ham sezilarli ta'sir qilmoqda.

Mehnat bozori har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. U ish beruvchilar va ishchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, ishchi kuchi talabi va taklifini muvozanatlashtiradi. Raqamli texnologiyalar esa yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlarni olib kelmoqda. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot xalqaro raqobatni kuchaytiradi, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Bu



jarayonlarning to'g'ri boshqarilishi orqali iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash mumkin.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori tez sur'atlar bilan o'zgarimoqda. Bu o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- **Yangi kasb va mutaxassisliklarning paydo bo'lishi.** Raqamli iqtisodiyot yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatini taqdim etadi. Masalan, IT mutaxassislari, data analistlar, sun'iy intellekt va mashina o'rganuvi bo'yicha yangi mutaxassislari kabi yangi kasblarni talab etadi. Elektron tijorat, mobil to'lovlar, raqamli marketing sohalarida yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi. Jahon iqtisodiy forumi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda 85 mln ish o'rni yo'qolishi va 97 mln ish o'rni paydo bo'lishi kutilmoqda.¹
- **Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.** Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish imkonini beradi. Avtomatlashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi va mahsulot sifatini yaxshilaydi. Bu jarayonlar esa ishlab chiqarish sohasida yangi ish o'rinlarining yaratilishi, qo'shimcha bilim, ko'nikma va malaka talab qiladi va eski ish o'rinlarining qisqarishi yoki yo'qolishi ehtimolini oshiradi.
- **Xalqaro raqobat.** Raqamli iqtisodiyot xalqaro miqyosda raqobatni kuchaytiradi. Mamlakatlar o'rtasida texnologik va iqtisodiy raqobat kuchayishiga olib kelishi bilan birgalikda xalqaro savdo va investitsiyalar ko'lamini kengaytiradi. Xalqaro raqobat mehnat bozorida yangi imkoniyatlar yaratishiga qaramasdan, bir vaqtning o'zida yuqori raqobat va talabning ortishiga olib keladi.
- **Ijtimoiy ta'sirlar.** Ba'zi ish o'rinlarining avtomatlashtirilishi orqali ham yo'qolishi mumkin. Bunday o'zgarishlar iqtisodiy tengsizlik va ijtimoiy

¹ <https://www.vic.ai/resources/why-ai-will-create-more-jobs-than-it-will-eliminate#:~:text=So%20even%20as%20AI%20replaces,created%20over%20the%20same%20period.>



adolatsizlikka olib kelishi mumkin. Shu sababdan, ishchilarning ta'limi va malakasini oshirish bilan birgalikda ularni yangi sharoitga moslashtirish zarurdir.


Hozirgi kunda mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Pandemiya davrida boshlangan yangi ish rejimlari va iqtisodiy o'zgarishlar mehnat bozorining asosiy tendensiyalarini shakllantirmoqda. Masalan:

- **Masofaviy ish imkoniyatlarining kengayishi.** COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ishlash tizimiga o'tish ishchilar va kompaniyalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi. Masofaviy ishning kengayishi ishchilarga uydan ishlash imkonini berdi va texnologik infratuzilmaning rivojlanishi orqali yanada qulay bo'ldi.
- **Moslashuvchan ish grafigi va frilanserlik.** Moslashuvchan ish grafigi ishchilarga o'z vaqtlarini boshqarishda katta imkoniyat beradi. Shu bilan birgalikda frilanserlik bozorlari ham kengayib bormoqda. Frilanserlar turli loyiha va vazifalarni bajarishi uchun to'g'ridan-to'g'ri mijozlar bilan aloqa qilishadi. Xalqaro frilanserlik platformalarining bozor hajmi 2023-yilda 4942,31 mln dollarni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2032-yilga kelib, 11733,34 mln dollarga teng bo'lishi kutilmoqda.²
- **Avtomatlashtirish va sun'iy intellektning ta'siri.** Avtomatlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalari ish o'rinlarini avtomatlashtirishda va ba'zi kasblarda ish o'rinlarining qisqarishiga sabab bo'lmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari ma'lumotlar tahlili, mijozlarga xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish kabi sohalarda qo'llanilmoqda va bu o'zgarishlar ishchilarga yangi ko'nikmalarni o'rganishlariga sabab bo'lmoqda.

² <https://www.linkedin.com/pulse/freelance-platforms-market-size-projected-exceed-oujse#:~:text=Global%20Freelance%20Platforms%20Market%20size,Stake%2C%20and%20Future%20Growth%20Dynamics>.




McKinsey Global Institutining ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga kelib, avtomatlashtirish natijasida xalqaro mehnat bozorida ish soatlarining 15 foizga qisqarishi va 400-800 million ish o'rni yo'qolishi mumkin. Shu bilan birgalikda, raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq sohalarda 200-300 million atrofida yangi ish o'rinlarining yaratilishi kutilmoqda.³



1-rasm. Dunyo mamlakatlarida 2030-yilga kelib, mehnat bozorida avtomatlashtiriladigan ish soatlarining ulushi, foiz.⁴

³ https://www.statista.com/chart/12066/autocomplete_-jobs-under-threat-from-automation/

⁴ <https://cdn.statcdn.com/Infographic/images/normal/12066.jpeg>



2-rasm. Avtomatlashtirish natijasida 2030-yilga kelib, berilgan mamlakatlarda yo‘qolishi kutilayotgan ish o‘rinlarining soni, mln.⁵

1-rasmda tasvirlanganidek, Yaponiyadagi xodimlar bu o‘zgarishlardan ko‘proq zarar ko‘rishi mumkin. Ish soatlarining to‘rttdan bir qismi Yaponiyada avtomatlashtirilsa, AQSh va Gemaniyada ham bu ko‘rsatkich mos ravishda 23 % va 24% ga tengdir. Buning natijasida esa AQShda 73 mln ish o‘rni, Germaniyada esa 17 mln ish o‘rni yo‘qotilishi kutilmoqda (2-rasm). 2030-yilda Xitoyda 16 foiz ish soati avtomatlashtirilishi natijasida, 236 mln atrofidagi ishchi ishsiz qolishi kutilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorida muvaffaqiyatli xodim bo‘lish uchun ishchilardan raqamli savodxonlik, doimiy o‘rganish va qayta malaka oshirish, qattiq ko‘nikmalar (hard skills) va yumshoq ko‘nikmalar (soft skills) juda muhimdir.

⁵ <https://cdn.statcdn.com/Infographic/images/normal/12082.jpeg>



Raqamli savodxonlik ko'nikmalari orqali ishchilar texnologiyalardan samarali foydalanish, internetdan ma'lumotlarni qidirish va turli xildagi dasturiy ta'minot va platformalar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, zamonaviy mehnat bozorida texnologiyalar va ish sharoitlaridagi o'zgarishlariga moslashish uchun doimiy o'rganish va qayta mallaka oshirish zarur. Yumshoq ko'nikmalar muloqot, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish va vaqtni boshqarishda, ish joyida muvaffaqiyatga erishish uchun muhimdir. Bu ko'nikmalar ishchilarning jamoa bilan samarali ishlashini, muammolarni hal qilishini va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Mamlakatimizda 2022-yilda raqamli iqtisodiyot ulushi YaIMning 2,77 foizini tashkil etgan. ⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoniga binoan, 400 ming nafar yoshlarning bandligini ta'minlash va muammolarini hal etishga erishish, yoshlarning ishsizlik darajasini 14 foizdan 11 foizga kamaytirish, IT sohasida 300 ming nafar yoshlarni ish bilan ta'minlash, "Bir million dasturchi" loyihasini kengaytirish va har yili 15 ming nafar eng iqtidorli yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash va boshqa islohotlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori tez sur'atlarda o'zgarmoqda. Bu o'zgarishlar yangi kasb va mutaxassisliklarning paydo bo'lishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi, xalqaro raqobatning kuchayishi va ijtimoiy ta'sirlar bilan bog'liq. Hozirgi kunda masofaviy ish imkoniyatlarining kengayishi, moslashuvchan ish grafigi va frilanserlikning rivojlanishi, avtomatlashtirish va sun'iy intellektning ta'siri kabi tendensiyalar kuzatilmoqda. Bu sharoitda muvaffaqiyatli bo'lish uchun xodimlardan raqamli savodxonlik, doimiy o'rganish va qayta malaka oshirish, qattiq va yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish talab etiladi. O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va yoshlarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlash

⁶ <https://eupoliticalreport.com/uzbekistan-in-the-process-of-digitalization/#:~:text=In%20addition%2C%20the%20share%20of,million%20from%202020%20to%202022.>



bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o'zgarishlarni to'g'ri boshqarish va ularga moslashish orqali iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://lex.uz/docs/-6600413>
2. <https://www.vic.ai/resources/why-ai-will-create-more-jobs-than-it-will-eliminate#:~:text=So%20even%20as%20AI%20replaces,created%20over%20the%20same%20period>. Why AI Will Create More Jobs Than It Will Eliminate
3. https://www.statista.com/chart/12066/autocomplete_-_jobs-under-threat-from-automation/ Autocomplete: Jobs Under Threat From Automation
4. <https://eupoliticalreport.com/uzbekistan-in-the-process-of-digitalization/#:~:text=In%20addition%20the%20share%20of,million%20from%202020%20to%202022>. Uzbekistan in the Process of Digitalization